

MEN O‘ZBEKISTONDA YASHAYMAN



Har bir inson muayyan bir joyda tug‘iladi. Shu maskan uning Vatani hisoblanadi.

O‘zbekiston – bizning Vatanimiz. Yurtimiz dunyodagi eng go‘zal mamlakatlardan biri. Bu yerda o‘zbeklar bilan birga boshqa millat vakillari ham ahil-inoq yashaydilar.

O‘zbekistonda Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo‘qon kabi dunyoga mashhur tarixiy shaharlar bor.


Toshkent – mamlakatimiz poytaxti.



1. O‘zbekistonning poytaxti qaysi shahar?
2. Siz qaysi shahar (qishloq)da yashaysiz?
3. O‘zbekistondagi yana qaysi shaharlarni bilasiz?



O‘zbekiston bayrog‘ini bo‘yang. Sizga qanday rangli qalamlar kerak bo‘ladi?



- **Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.**
- **Vatan – ona kabi yagona.**



1. Bayroqdagi ranglar nimani bildiradi?
2. Sizga qaysi maqol ko‘proq yoqdi? Nima uchun?



Hammamiz har xil ko‘chalarda yashaymiz. Ular uzun yoki qisqa, sokin yoki sershovqin bo‘lishi mumkin. Bu yerda daraxtlar, do‘konlar, uylar va mashinalarni ko‘rish mumkin. O‘ylab ko‘ring, sizning ko‘changiz qanday ko‘rinishga ega? U yerda qanday uylar bor, siz u yerda eng ko‘p nimani ko‘rasiz, qayerda sayr qilishni yoqtirasiz? Endi shularning barchasini rasmda tasvirlashga harakat qilib ko‘ring! Tasavvur qiling, siz rassomsiz va o‘z ko‘changizni do‘stlaringizga ko‘rsatmoqchisiz.



Bu dars siz uchun qiziqarli bo‘ldimi?

